

BOBUR G‘AZALIYOTIDA QOFIYA SAN’ATLARI

Xonto‘rayev Jasurbek

Andijon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning qofiya san’atlaridan ustalik bilan foydalanganligi, bu esa g‘azalga o‘zgacha joziba berganligi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tajziya, musajj’, rajaz, hazaj, muzore’, ichki qofiya, radif.

Zahiriddin Muhammad Bobur nomi tilga olinganda kimlarningdir xayolida qudratli shoh, yana kimlarningdir xayolida buyuk shoir gavdalanadi. Boburga shoh va shoir degan ta’rifning o‘zi kamlik qiladi. U, o‘z navbatida, adabiyotshunos olim va tarjimon ham edi. Shoh sifatida Hindistonda 332 yil hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasiga asos solgan bo‘lsa, tarjimon sifatida Xoja Ahrorning "Volidiya" asarini tarjima qilgan. Adabiyotshunoslikka, xususan, aruz ilmiga bag‘ishlangan "Muxtasar" asarini yaratganki, uni olim deyishga to‘la haqlimiz. Bobur haqida gap ketar ekan, uning dilbar shoir ekanligiga, takrorlanmas quyma satrlar bitganligiga, yozgan g‘azallar-u ruboiylarida hayot haqiqatlarini aks ettirganligiga to‘xtalmasdan ilojimiz yo‘q. Bobur shunday she’riy asarlar yozganki, o‘qiguvchi shoir shaxsiga tasannolar aytadi. Ha, Bobur o‘z ijodi bilan ana shunday daraja hosil qila olgan ijodkor edi. Ayniqsa, g‘azallarini mutolaa qilar ekanmiz shoirning so‘z qo‘llash, badiiy tasvir vositalaridan unumli va o‘rinli foydalanish mahoratiga qoyil qolamiz. Bobur ijodi bilan tanish bo‘lgan insonlar uning o‘z she’riy asarlarida ma’naviy san’atlardan ko‘p o‘rinlarda foydalanganligini yaxshi biladilar. Shuning bilan birga u qofiya san’atlaridan, jumladan, musajja’ va tajziya san’atlaridan ham foydalangan holda go‘zal g‘azallar yaratgan. Musajja’ - "saj’li, qofiyali" ma’nosida bo‘lib, baytlari ichki qofiyali bo‘lgan she’riy asarlar shunday ataladi [Hojiahmedov, 1998: 146]. Tajziya -

ilmi bade' istilohlaridan bo'lib, bayt misralarining har birini ikki bo'lakka ajratib, misralardagi birinchi bo'laklarni ham, ikkinchi bo'laklarni ham o'zaro qofiyalash san'atidir [Hojiahmedov, 1998: 149]. Shunday g'azallardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

Soqi erur ishrat chog'i, afsurda bo'lma day bila

O'ttek chog'ir keltur, dag'i suhbat tunotur may bila [Bobur, 1976:6]

matla'si bilan bilan boshlanuvchi 5 baytli g'azalining har bir baytida qofiya san'atlaridan foydalanilgan. G'azal aruzning rajazi musammani solim vaznida bitilgan.

Taqte'si: - - V - / - - V - / - - V - / - - V -

Ushbu baytning birinchi misrasidagi "chog'i" va "day" so'zlari ikkinchi misradagi "dag'i" va "may" so'zlari bilan qofiyalanib, tajziyani yuzaga keltirgan. Keyingi baytlarning barchasida musajja' san'atidan foydalanilgan. G'azalning ikkinchi bayti quyidagicha

Keltur sharobi nobni, omoda qil asbobni

Xush tut shabi mahtobni, chun bordur ul oy bila

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, musajja' to'rtta teng bo'lakka bo'linishi mumkin bo'lgan 8 ruknli (musamman) baytlardagina qo'llanishi mumkin [Hojiahmedov, 1998: 146]. Yuqoridagi bayt shu qoidaga to'laqonli mos tushadi. Baytda asosiy qofiyalanuvchi so'z(oy)dan tashqari "nob", "asbob" va "mahtob" so'zlari o'zaro qofiyalanib, musajja'ni (ichki qofiya) hosil qilgan. Bu so'zlardagi "b" undoshi raviy bo'lib, raviydan keyin kelgan -ni affiksi qofiyani yana ham kuchayishiga xizmat qilgan. G'azalning keyingi bayti

Davron g'amin barbod qil, ishrat uyin obod qil,

Jonu ko'ngilni shod qil ovozi changu nay bila

misralari bilan davom etgan. Bu baytda "barbod", "obod" va "shod" so'zlari ichki qoyifaga olingan. Misralarga yana ham diqqat bilan e'tibor bersak, "qil" so'zi ichki qofiyaga olingan so'zlardan so'ng 3 o'rinda takrorlangan. Shu bois "qil" so'zini ushbu bayt uchun ichki radif deb olishimiz mumkin. Chunki radif adabiyotshunoslikda

qofiyadan soʻng kelib aynan takrorlanuvchi soʻz yoki soʻzlar birikmasini anglatadi[Hojiahmedov, 1999: 39].

Majlisda bordur sar-basar may nashʼasidin shoʻru sharʼ

Borini mastu bexabar qil jomi paydar-pay bila

baytida ham ichki qofiyalanish davom etadi. "Sar-basar", "shoʻru sharʼ" va "bexabar" soʻzlari ichki qofiyani hosil qilib, "r" undoshi qofiyani hosil qiluvchi raviy boʻlib xizmat qilgan. Gʻazalning soʻnggi bayti (maqtaʼ)da ham musajjaʼni koʻrishimiz mumkin:

Hamdard yore qonikim, bir gʻamgusore qonikim,

Abri bahore qonikim, Bobur kibi yigʻlay bila

Bu baytda "yore", "gʻamgusore", "bahore" soʻzlari orqali ichki qofiya hosil qilingan boʻlib, "r" undoshi raviy hisoblanadi. Raviydan keyin kelgan "e" unlisi qofiyani yana ham aniqroq koʻrsatishga xizmat qilgan. Ushbu misralarda ham yuqorida koʻrib oʻtgan bir baytimiz singari ichki radif (qonikim) qoʻllangan.

Yana bir gʻazalni tahlilga tortamiz:

Qaro zulfung firoqida parishon roʻzgʻorim bor,

Yuzungning ishtiyoqida ne sabru ne qarorim bor

Bu gʻazal ham yuqorida tahlil qilingan gʻazal kabi 5 baytdan iborat va har bir baytida qofiya sanʼatlari qoʻllangan. Gʻazal aruzning hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Taqteʼsi: V - - - / V - - - / V - - - / V - - -

Gʻazal matlaʼsidagi "firoqida" va "ishtiyoqida", "roʻzgʻorim" va "qarorim" soʻzlari qofiyalanib, tajziyani hosil qilgan. Odatda, matlaʼda tajziya qoʻllangan gʻazallarning keyingi baytlarida musajjaʼ qoʻllanadi. Bu gʻazal ham shunday gʻazallar sirasiga kiradi.

Labing bagʻrimni qon qildi, koʻzumdin qon ravon qildi,

Nega holim yamon qildi, man andin bir soʻrorim bor

baytida "qon", "ravon", "yamon" soʻzlari qofiyalanib musajjaʼ hosil qilgan boʻlsa, musajjaʼdan keyin kelgan "qildi" soʻzi ichki radifni yuzaga keltirgan. Bu holat, yaʼni ichki qofiya va ichki radif qoʻllash keyingi baytda ham davom etgan:

Jahondin manga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,

Ne g'am, yuz muncha ham bo'lsa, seningdek g'amgusorim bor

Baytdagi "g'am", "alam", "ham" so'zlari ichki qofiya, "bo'lsa" so'zi ichki radifdir. Keyingi ikki baytda ichki radif qo'llanilmagan, lekin musajja'ning yorqin misollari keltirilgan:

Agar muhlismen, ar mufsid va gar oshiqmen, ar obid,

Ne ishing bor sening, zohid, meningki ixtiyorim bor

Ushbu misralarda "mufsid", "obid", va "zohid" so'zlari orqali ichki qofiya yuzaga keltirilgan bo'lsa,

Fig'onim oshdi bulbuldin, g'ami yo'q zarra bu quldin,

Base, Bobir, o'shal guldin ko'ngulda xorxorim bor

baytida "bulbuldin", "quldin" va "guldin" so'zlaridan foydalanib musajja' hosil qilingan. Bobur bu g'azalida ham matla'dan to maqta'gacha har bir baytda qofiya san'atidan foydalangan. Bu esa g'azal o'qiguvchi uchun juda qulay va yoqimlidir. Umuman olganda, nazdimizda, ichki qofiya qo'llangan g'azallar ichki qofiya qo'llanmagan g'azallarga nisbatan bir pog'ona yuqori o'rinda turadi. Sababi bunday g'azallar yozish shoirdan yuqori bilim va mahorat talab qilishi bilan bir qatorda yozilgan g'azal oson va ravon o'qiladi. Bu kabi g'azallar kuyga solinganda esa o'zgacha ohang hosil qiladi. Fikrimizni davom ettirgan holda Boburning yana bir g'azalini ko'ib chiqamiz:

G'ofil o'lma, ey soqiy, gul chog'in g'animat tut,

Vaqt aysh erur boqiy, ol chog'ir, ketur, bot tut

Bu g'azal ham avval tahlil qilingan ikki g'azal singari tajziya bilan boshlanib musajja' bilan davom etadi. Vazni: hazaji musammani ashtar. Taqte'si:

- V -/ V - - -/ - V -/ V - - -

Yuqoridagi baytda "soqiy" va "boqiy", "g'animat" va "bot" so'zlari tajziyani yuzaga keltirgan. Keyingi ikki baytda, ko'rib o'tayotganimiz, musajja' san'ati qo'llangan:

Bu nasihatim angla, ne bilur kishi yongla,

Ne bo‘lur ekin tongla, sen bugun g‘animat tut.

Xushturur visoli yor anda bo‘lmasa dayyor,

Bo‘lsa vasl e‘tibor davlatu saodat tut.

Boburning o‘zgacha o‘xshatishlar bilan yozgan, hammaga birdek ma‘qul bo‘lgan mashhur g‘azali ham biz e‘tibor qaratayotgan qofiya san‘atlarini o‘zida mujassam etgan. Bu g‘azal quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Xatting aro uzoring sabza ichinda lola,

Ul chashmi purxumoring loladagi g‘azola

G‘azal aruzning muzoriyi musammani axrab vaznida yozilgan. Taqte‘si:

-- V/ - V - -/ - -V/ - V - -

Badiiyat jihatidan mukammal bo‘lgan g‘azalning birinchi baytida tajziya san‘atidan ham foydalanilgan. Bu "uzoring" va "purxumoring", "lola" va "g‘azola" so‘zlarida o‘z aksini topgan. Keyingi baytlarda, odatdagidek, musajja’ san‘ati birinchi o‘ringa chiqadi.

Barcha parilar, ey jon, girdingda zoru hayron,

Go‘yo erur namoyon oy tegrasida hola.

Mehru vafoni, ey yor, ko‘p ko‘rdi sendin ag‘yor,

Javr-u jafoni bisyor qilding manga havola

Tahlil qilingan g‘azallar asosida qofiya san‘atlaridan hisoblangan tajziya va musajja’ san‘atlari, asosan, yonma-yon kelishi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Bu, ayniqsa, Bobur g‘azaliyotida yaqqol namoyon bo‘lganligini ko‘rib chiqdik. Shoir bunday g‘azallar yozishi uchun, avvalo, qofiya ilmini chuqur egallagan bo‘lishi kerak. Egallagan ilmi asosida mazmun jihatidan g‘oyatda go‘zal bo‘lgan g‘azal yaratish uchun esa nozik did, yuksak mahorat talab etiladi. Bobur ana shu ikki xususiyatni o‘zida jamlay olgan buyuk iste‘dod sohibi edi. Shuning uchun uning yaratgan asarlari necha asrlar o‘tsa ham o‘z malohatini yo‘qotmay, vaqt sinoviga bardosh berib kelyapti. Hali uning yaratgan asarlari, yozgan g‘azallari-yu ruboiylari ko‘plab she‘riyat shaydolarini maftun etib, boqiy yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bobir. Tanlangan asarlar.-T.: O'qituvchi, 1976.
2. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya.-T.: Sharq, 1998.
3. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi?.-T.: Sharq, 1999
4. Mamajonov Z. Mumtoz she'riy san'atlarning nazariy tasnifi.-T.: Akademnashr, 2016.